Har bir satr bir haftani, har bir ustun esa mahsulot turini bildiradi. Tashkilot bosh ofisi har bir haftada umumiy daromadni hisoblamogchi.

Yechilishi. Umumiy daromad matritsalarini qo'shish orqali topiladi:

$$C = A + B = \begin{pmatrix} 120 + 90 & 150 + 110 & 130 + 100 \\ 110 + 95 & 140 + 105 & 125 + 115 \\ 100 + 85 & 135 + 100 & 120 + 95 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 210 & 260 & 230 \\ 205 & 245 & 240 \\ 185 & 235 & 215 \end{pmatrix}.$$



Hosil bo'lgan matritsa tashkilotning har bir haftadagi va har bir mahsulot bo'yicha **umumiy daromadini** ko'rsatadi (million so'mda):

1-hafta umumiy daromad: 210, 260, 230;

2-hafta umumiy daromad: 205, 245, 240;

3-hafta umumiy daromad: 185, 235, 215.

Python dasturlash tilida ikkita matritsalarining yig'indisini hisoblash dasturi

Matritsalarini qo'shish dasturi

```
def matritsa_kiritish(nomi, satr, ustun):
```

```
    print(f"\n{nomi} matritsani kiriting:")
```

```
    matritsa = []
```

```
    for i in range(satr):
```

```
        qator = []
```

```
        for j in range(ustun):
```

```
            qiymat = float(input(f"{nomi} [{i+1}][{j+1}] = "))
```

```
            qator.append(qiymat)
```

```
        matritsa.append(qator)
```

```
    return matritsa
```

```
def matritsalarini_qoshish(A, B):
```

```
    satr = len(A)
```

```
    ustun = len(A[0])
```

```
    C = []
```

```
    for i in range(satr):
```

```
        qator = []
```

```
        for j in range(ustun):
```

```
            qator.append(A[i][j] + B[i][j])
```

```
        C.append(qator)
```

```
    return C
```

```
def matritsani_chiqarish(M, nomi="Matritsa"):
```

```
    print(f"\n{nomi}:")
```

```
    for qator in M:
```

```
        print(" ".join(f"{x:.2f}" for x in qator))
```

Foydalanuvchidan o'lchamlarni olish

```
satr = int(input("Matritsa satrlar sonini kiriting: "))
```

```
ustun = int(input("Matritsa ustunlar sonini kiriting: "))
```

Ikkita matritsani kiritish

```
A = matritsa_kiritish("A", satr, ustun)
```

```
B = matritsa_kiritish("B", satr, ustun)
```

Qo'shish

```
C = matritsalarini_qoshish(A, B)
```

Natijani chiqarish

```
matritsani_chiqarish(A, "A matritsa")
```

```
matritsani_chiqarish(B, "B matritsa")
```

```
matritsani_chiqarish(C, "A + B natija matritsa")
```

Python dasturlash tilidagi natija quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasmga qarang):

```
A matritsa:
120.00  150.00  130.00
110.00  140.00  125.00
100.00  135.00  120.00

B matritsa:
90.00   110.00   100.00
95.00   105.00   115.00
85.00   100.00   95.00

A + B natija matritsa:
210.00  260.00  230.00
205.00  245.00  240.00
185.00  235.00  215.00
```

1-rasm. Python dasturlash tilida ikkita matritsalarining yig'indisini hisoblash dasturi natijasi



2-masala. Reja va haqiqatdagi ishlab chiqarish farqini aniqlash. Bir korxona 3 xil mahsulot bo'yicha oy boshida ishlab chiqarish rejasini tuzdi. Quyidagi matritsa rejalashtirilgan mahsulot sonini bildiradi (dona hisobida):

$$\text{Reja (A matritsa): } A = \begin{pmatrix} 500 & 600 & 550 \\ 400 & 500 & 450 \end{pmatrix}.$$

Oy oxirida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni quyidagicha bo'ldi:

$$\text{Haqiqiy ishlab chiqarish (B matritsa): } B = \begin{pmatrix} 480 & 620 & 530 \\ 390 & 510 & 470 \end{pmatrix}.$$

Topshiriq. Har bir ishlab chiqarish bo'limi (sitr) bo'yicha mahsulotlar kesimida **rejadagi va haqiqatdagi farqni** (ortiqcha yoki kam ishlab chiqarilgan sonni) toping.

Yechilishi. Rejalashtirilgan ishlab chiqarish bilan haqiqiy ishlab chiqarish o'rtasidagi farq – bu **matritsalar ayirmasi**:

$$C = A - B = \begin{pmatrix} 500 & 600 & 550 \\ 400 & 500 & 450 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} 480 & 620 & 530 \\ 390 & 510 & 470 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 500 - 480 & 600 - 620 & 550 - 530 \\ 400 - 390 & 500 - 510 & 450 - 470 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 20 & -20 & 20 \\ 10 & -10 & -20 \end{pmatrix}.$$

$$\text{Natija (Farq matritsasi). } C = \begin{pmatrix} 20 & -20 & 20 \\ 10 & -10 & -20 \end{pmatrix}.$$

Izoh:

Musbat son – rejalashtirilganidan ko'proq ishlab chiqarilgan;

Manfiy son – rejalashtirilganidan kam ishlab chiqarilgan.

Tahlil:

1-ishlab chiqarish bo'limida:

1-mahsulot: +20 dona (ko'proq);

2-mahsulot: -20 dona (kamroq);

3-mahsulot: +20 dona (ko'proq).

2-ishlab chiqarish bo'limida:

1-mahsulot: +10 dona (ko'proq);

2-mahsulot: -10 dona (kamroq);

3-mahsulot: -20 dona (kamroq).

Yakuniy xulosa. Bu masala orqali ishlab chiqarish bo'yicha reja va amaldagi natijalar orasidagi farq aniqlandi. Bunday tahlil: rejalashtirishdagi xatolarni, ishlab chiqarishdagi muvozanatsizlikni va samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Python dasturlash tilida ikkita matritsalarining ayirmasini hisoblash dasturi

```
import numpy as np
def matritsa_kiritish(nomi):
    satr = int(input(f'{nomi} matritsaning satrlar sonini kiriting: '))
    ustun = int(input(f'{nomi} matritsaning ustunlar sonini kiriting: '))
    print(f'{nomi} matritsani kiriting ({satr}x{ustun}):')
    matritsa = []
    for i in range(satr):
        qator = list(map(float, input(f'{i+1}-qator elementlarini kiriting (bo'sh joy bilan): ').split()))
        if len(qator) != ustun:
            raise ValueError("Qator elementlari soni ustunlar soniga teng bo'lishi kerak.")
        matritsa.append(qator)
    return np.array(matritsa)
def asosiy():
    print("IKKITA MATRITSANING AYIRMASINI HISOBLOVCHI DASTUR")
    print("-----")
    A = matritsa_kiritish("A")
    B = matritsa_kiritish("B")
    if A.shape != B.shape:
        print("⚠ Matritsalar o'lchamlari mos emas. Ayirma amalga oshirilmaydi.")
    else:
        C = A - B
        print("\nA matritsa:")
```



```
print(A)
print("\nB matritsa:")
print(B)
print("\nAyirma (A - B):")
print(C)
if __name__ == "__main__":
    asosiy()
```

Python dasturlash tilidagi natija quyidagi rasmda keltirilgan (2-rasmga qarang):

```
IKKITA MATRITSANING AYIRMASINI HISOBLOVCHI DASTUR
-----
A matritsaning satrlar sonini kiriting: 2
A matritsaning ustunlar sonini kiriting: 3
A matritsani kiriting (2x3):
1-qator elementlarini kiriting (bo'sh joy bilan): 500 600 550
2-qator elementlarini kiriting (bo'sh joy bilan): 400 500 450
B matritsaning satrlar sonini kiriting: 2
B matritsaning ustunlar sonini kiriting: 3
B matritsani kiriting (2x3):
1-qator elementlarini kiriting (bo'sh joy bilan): 480 620 530
2-qator elementlarini kiriting (bo'sh joy bilan): 390 510 470

A matritsa:
[[500. 600. 550.]
 [400. 500. 450.]]

B matritsa:
[[480. 620. 530.]
 [390. 510. 470.]]

Ayirma (A - B):
[[ 20. -20.  20.]
 [ 10. -10. -20.]]
```

2-rasm. Python dasturlash tilida ikkita matritsalarining ayirmasini hisoblash dasturi natijasi

3-masala. Narxlar oshishining ta'siri. Bir korxonada uchta mahsulot ishlab chiqariladi. Har bir mahsulot turiga nisbatan 1 oy ichida ishlab chiqarilgan birliklar soni quyidagi matritsada berilgan (sonda):

$$A = \begin{pmatrix} 100 \\ 200 \\ 150 \end{pmatrix}$$

Shuningdek, ishlab chiqarish tannarxi 20% ga oshdi. Bu holatda har bir mahsulot soni o'zgarishsiz qolar ekan, umumiy ishlab chiqarish matritsasini yangi iqtisodiy sharoitga mos ravishda yangilang.

Yechilishi. 20% oshish demak, har bir mahsulot hajmini 1,2 ga ko'paytirish orqali xarajatlar ifodalanadi. Demak, biz matritsani skalyar songa ko'paytiramiz:

$$1,2 \cdot A = 1,2 \cdot \begin{pmatrix} 100 \\ 200 \\ 150 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 120 \\ 240 \\ 180 \end{pmatrix}$$

Natija. Narxlar oshganidan keyin iqtisodiy jihatdan har bir mahsulot turiga to'g'ri keladigan xarajat hajmi quyidagicha bo'ladi:

1-mahsulot: 120 birlik xarajat;

2-mahsulot: 240 birlik xarajat;

3-mahsulot: 180 birlik xarajat.

Izoh. Bu usul orqali:

narxlar, soliqlar yoki inflyatsiya ta'sirini hisobga olish mumkin;

resurslarni rejalashtirishda yoki smeta tuzishda skalyarga ko'paytirish amali tez va qulay natija beradi.

Python dasturlash tilida matritsani songa ko'paytirish dasturi

Matritsani songa ko'paytirish dasturi



```
def matritsa_kiritish(satr, ustun):
    print("\nMatritsa elementlarini kiriting:")
    matritsa = []
    for i in range(satr):
        qator = []
        for j in range(ustun):
            qiymat = float(input(f"A[{i+1}][{j+1}] = "))
            qator.append(qiymat)
        matritsa.append(qator)
    return matritsa

def matritsani_kopaytirish_songa(matritsa, son):
    natija = []
    for qator in matritsa:
        yangi_qator = [element * son for element in qator]
        natija.append(yangi_qator)
    return natija

def matritsani_chiqarish(M, nomi="Matritsa"):
    print(f"\n{nomi}:")
    for qator in M:
        print(" ".join(f"{x:.2f}" for x in qator))

# Foydalanuvchidan matritsa o'lchamini olish
satr = int(input("Matritsa satrlar sonini kiriting: "))
ustun = int(input("Matritsa ustunlar sonini kiriting: "))
# Matritsani kiritish
A = matritsa_kiritish(satr, ustun)
# Ko'paytiruvchi sonni kiritish
k = float(input("\nMatritsani ko'paytirish uchun sonni kiriting: "))
# Natija matritsani hisoblash
C = matritsani_kopaytirish_songa(A, k)
# Natijani chiqarish
matritsani_chiqarish(A, "Asl matritsa A")
print(f"\nKo'paytiruvchi son: {k}")
matritsani_chiqarish(C, "Natija matritsa (A x k)")
```

Python dasturlash tilidagi natija quyidagi rasmda keltirilgan (3-rasmga qarang):

```
Asl matritsa A:
100.00
200.00
150.00

Ko'paytiruvchi son: 1.2

Natija matritsa (A x k):
120.00
240.00
180.00
```

3-rasm. Python dasturlash tilida matritsani songa ko'paytirish dasturi natijasi

4-masala. Hududlar bo'yicha mahsulotdan tushgan daromadni hisoblash. Bir kompaniya 3 xil mahsulotni 2 ta hududga yetkazib beradi. Quyidagi matritsada har bir hududga yuborilgan mahsulotlar miqdori ko'rsatilgan (dona hisobida):

Mahsulot miqdori (A matritsa): $A = \begin{pmatrix} 100 & 200 & 150 \\ 80 & 120 & 130 \end{pmatrix}$.

Bu yerda:

1-qator: 1-hududga yuborilgan mahsulotlar (1, 2, 3);

2-qator: 2-hududga yuborilgan mahsulotlar (1, 2, 3).



Har bir mahsulotning bir donasining narxi (ming so'mda) quyidagicha berilgan:

$$B = \begin{pmatrix} 10 \\ 15 \\ 12 \end{pmatrix}$$

Mahsulot narxlar (B matritsa):

Topshiriq. Har bir hududdan kompaniya qancha daromad olganini hisoblang.

Yechilishi. Bu masala ikki matritsaning ko'paytmasi orqali yechiladi:

$$C = A \cdot B$$

Matritsalarini ko'paytiramiz:

$$C = A \cdot B = \begin{pmatrix} 100 & 200 & 150 \\ 80 & 120 & 130 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 10 \\ 15 \\ 12 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 100 \cdot 10 + 200 \cdot 15 + 150 \cdot 12 \\ 80 \cdot 10 + 120 \cdot 15 + 130 \cdot 12 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 5800 \\ 4160 \end{pmatrix}$$

1-hudud uchun:

$$100 \cdot 10 = 1000$$

$$200 \cdot 15 = 3000$$

$$150 \cdot 12 = 1800$$

$$\text{Jami: } 1000 + 3000 + 1800 = 5800 \text{ ming so'm.}$$

2-hudud uchun:

$$80 \cdot 10 = 800$$

$$120 \cdot 15 = 1800$$

$$130 \cdot 12 = 1560$$

$$\text{Jami: } 800 + 1800 + 1560 = 4160 \text{ ming so'm.}$$

$$\text{Natija (Daromad matritsasi): } C = \begin{pmatrix} 5800 \\ 4160 \end{pmatrix}$$

Izoh:

1-hududdan tushgan daromad: 5 800 000 so'm;

2-hududdan tushgan daromad: 4 160 000 so'm.

Bu kabi matritsa ko'paytmasi orqali korxonalar mintaqaviy savdo, logistika, moliyaviy prognozlash va rejalashtirishni avtomatlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Python dasturlash tilida ikkita matritsani ko'paytirish dasturi

Ikkita matritsani ko'paytirish dasturi

```
def matritsa_kiritish(nomi, satr, ustun):
```

```
    print(f"\n{nami} matritsani kiriting:")
```

```
    matritsa = []
```

```
    for i in range(satr):
```

```
        qator = []
```

```
        for j in range(ustun):
```

```
            qiymat = float(input(f"{nami} [{i+1}][{j+1}] = "))
```

```
            qator.append(qiymat)
```

```
        matritsa.append(qator)
```

```
    return matritsa
```

```
def matritsani_chiqarish(M, nomi="Matritsa"):
```

```
    print(f"\n{nami}:")
```

```
    for qator in M:
```

```
        print(" ".join(f"{x:.2f}" for x in qator))
```

```
def matritsalarini_kopaytirish(A, B):
```

```
    natija = []
```

```
    satr_A = len(A)
```

```
    ustun_B = len(B[0])
```

```
    ustun_A = len(A[0]) # Bu B matritsaning satriga teng bo'lishi kerak
```

```
    for i in range(satr_A):
```

```
        qator = []
```

```
        for j in range(ustun_B):
```



```

summa = 0
for k in range(ustun_A):
    summa += A[i][k] * B[k][j]
qator.append(summa)
natija.append(qator)
return natija
# Foydalanuvchidan o'lchamlarni olish
print("A matritsa o'lchamlari (satr x ustun):")
satr_A = int(input(" Satrlar soni: "))
ustun_A = int(input(" Ustunlar soni: "))
print("\nB matritsa o'lchamlari (satr x ustun):")
satr_B = int(input(" Satrlar soni: "))
ustun_B = int(input(" Ustunlar soni: "))
# Tekshiruv: A ning ustun soni B ning satr soniga teng bo'lishi kerak
if ustun_A != satr_B:
    print("\n❌ Matritsalarini ko'paytirib bo'lmaydi! A matritsaning ustunlar soni B matritsaning satrlar soniga  
teng bo'lishi kerak.")
else:
    # Matritsalarini kiritish
    A = matritsa_kiritish("A", satr_A, ustun_A)
    B = matritsa_kiritish("B", satr_B, ustun_B)
    # Ko'paytirish
    C = matritsalarini_kopaytirish(A, B)
    # Natijani chiqarish
    matritsani_chiqarish(A, "A matritsa")
    matritsani_chiqarish(B, "B matritsa")
    matritsani_chiqarish(C, "A x B natija matritsa")

```

Python dasturlash tilidagi natija quyidagi rasmda keltirilgan (4-rasmga qarang):

```

A matritsa:
100.00  200.00  150.00
80.00   120.00  130.00

B matritsa:
10.00
15.00
12.00

A x B natija matritsa:
5800.00
4160.00

```

4-rasm. Python dasturlash tilida ikkita matritsani ko'paytirish dasturi natijasi

5-masala. Bir zavod 3 xil mahsulot ishlab chiqaradi: A, B, C. Ushbu mahsulotlar 4 xil xomashyo (X1, X2, X3, X4) yordamida tayyorlanadi. Har bir mahsulotni tayyorlash uchun quyidagi miqdorda xomashyo talab qilinadi (kg):

1-matritsa: xomashyo sarfi (kg)

$$M_1 = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 1 & 2 & 2 \\ 0 & 1 & 3 \\ 4 & 0 & 2 \end{pmatrix}$$

Bu yerda ustunlar A, B, C mahsulotlarni bildiradi, satrlar esa X1, X2, X3, X4 xomashyoni bildiradi.



Zavod har oyda quyidagi miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi:

2-matritsa: ishlab chiqarish hajmi (dona)

$$M_2 = \begin{pmatrix} 100 \\ 150 \\ 200 \end{pmatrix}$$

Bu yerda har bir satr A, B, C mahsulotlari uchun ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Har bir xomashyoning 1 kg uchun narxi quyidagicha (so'm):

3-matritsa: xomashyo narxlari (so'm/kg)

$$M_3 = (500 \quad 600 \quad 550 \quad 400)$$

Bu yerda har bir ustun mos ravishda 1 kg X1, X2, X3, X4 xomashyolarining narxini bildiradi.

Topshiriq. Zavod mahsulot ishlab chiqarish uchun **umumiy xomashyo xarajatlarini** hisoblang.

Yechilishi. 1-qadam. Mahsulot ishlab chiqarish uchun jami xomashyo sarfini topamiz:

$$M_4 = M_1 \times M_2 = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 1 & 2 & 2 \\ 0 & 1 & 3 \\ 4 & 0 & 2 \end{pmatrix} \times \begin{pmatrix} 100 \\ 150 \\ 200 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 850 \\ 800 \\ 750 \\ 800 \end{pmatrix}$$

Hisoblaymiz:

1-satr: $2 \cdot 100 + 3 \cdot 150 + 1 \cdot 200 = 200 + 450 + 200 = 850$

2-satr: $1 \cdot 100 + 2 \cdot 150 + 2 \cdot 200 = 100 + 300 + 400 = 800$

3-satr: $0 \cdot 100 + 1 \cdot 150 + 3 \cdot 200 = 0 + 150 + 600 = 750$

4-satr: $4 \cdot 100 + 0 \cdot 150 + 2 \cdot 200 = 400 + 0 + 400 = 800$

Natija:

$$M_4 = \begin{pmatrix} 850 \\ 800 \\ 750 \\ 800 \end{pmatrix}$$

Bu – har bir turdagi xomashyo bo'yicha jami xomashyo sarfi (kg).

2-qadam. Har bir xomashyo uchun umumiy xarajatni hisoblaymiz:

$$Umumiy \ xarajat = M_3 \times M_4 = (500 \quad 600 \quad 550 \quad 400) \times \begin{pmatrix} 850 \\ 800 \\ 750 \\ 800 \end{pmatrix} = (1637500)$$

Hisoblaymiz:

$$500 \cdot 850 + 600 \cdot 800 + 550 \cdot 750 + 400 \cdot 800 =$$

$$= 425000 + 480000 + 412500 + 320000 = 1\ 637\ 500 \text{ so'm.}$$

Javob. Zavodning mahsulot ishlab chiqarish uchun umumiy xomashyo xarajati **1 637 500 so'm**ni tashkil qiladi.

Python dasturlash tilida uchta matritsani ko'paytirish dasturi

Uchta matritsani ko'paytirish dasturi

```
def input_matrix(name):
```

```
    print(f"{name} matritsa o'lchamini kiriting (satr ustun): ", end="")
```

```
    try:
```

```
        rows, cols = map(int, input().split())
```

```
    except:
```

```
        raise ValueError("To'g'ri formatda son kiriting. Masalan: 2 3")
```

```
    print(f"{name} matritsani kiriting ({rows}x{cols}):")
```

```
    matrix = []
```

```
    for i in range(rows):
```

```
        while True:
```

```
            try:
```

```
                row = list(map(int, input(f"{i+1}-satr: ").split()))
```

```
                if len(row) != cols:
```

```
                    raise ValueError
```



```

        matrix.append(row)
        break
    except:
        print(f"{cols} ta son kiriting!")
    return matrix, rows, cols
def multiply(A, B, r1, c1, r2, c2):
    if c1 != r2:
        raise ValueError("Matritsalarini ko'paytirib bo'lmaydi: ustunlar va satrlar mos emas.")
    result = [[0 for _ in range(c2)] for _ in range(r1)]
    for i in range(r1):
        for j in range(c2):
            for k in range(c1):
                result[i][j] += A[i][k] * B[k][j]
    return result, r1, c2
def print_matrix(matrix, name="Natija"):
    print(f"\n{name} matritsa:")
    for row in matrix:
        print(" ".join(map(str, row)))
# --- Asosiy dastur ---
try:
    A, r1, c1 = input_matrix("A")
    B, r2, c2 = input_matrix("B")
    C, r3, c3 = input_matrix("C")
    # A x B
    AB, rAB, cAB = multiply(A, B, r1, c1, r2, c2)
    # (A x B) x C
    ABC, rABC, cABC = multiply(AB, C, rAB, cAB, r3, c3)
    # Natija
    print_matrix(ABC, "A x B x C")
except Exception as e:
    print(f"\n❌ Xatolik: {e}")

```

Python dasturlash tilidagi natija quyidagi rasmda keltirilgan (5-rasmga qarang):

```

A matritsa o'lchamini kiriting (satr ustun): 1 4
A matritsani kiriting (1x4):
1-satr: 500 600 550 400
B matritsa o'lchamini kiriting (satr ustun): 4 3
B matritsani kiriting (4x3):
1-satr: 2 3 1
2-satr: 1 2 2
3-satr: 0 1 3
4-satr: 4 0 2
C matritsa o'lchamini kiriting (satr ustun): 3 1
C matritsani kiriting (3x1):
1-satr: 100
2-satr: 150
3-satr: 200

A x B x C matritsa:
1637500

```

5-rasm. Python dasturlash tilida uchta matritsani ko'paytirish dasturi natijasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida iqtisodiy masalalarni tahlil qilishda matritsalar nazariyasi va chiziqli algebra usullarining yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Matritsalar yordamida iqtisodiy jarayonlar,



jumladan, ishlab chiqarish hajmini baholash, daromad va xarajatlarni hisoblash, rejalashtirish va optimallashtirish kabi ko'plab amaliy muammolar modellashtirilishi mumkin. Ayniqsa, Python dasturlash tili yordamida ushbu matematik modellar asosida tezkor va vizual natijalar olish imkoniyati yaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, matritsa amallari orqali iqtisodiy axborotni kompyuterda samarali qayta ishlash, ma'lumotlar ustida arifmetik, statistik va moliyaviy hisob-kitoblarni bajarish mumkin. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiy modelni soddalashtiradi, ikkinchi tomondan esa, qaror qabul qilish jarayonining tez va aniq bo'lishini ta'minlaydi. Dasturlash yondashuvi esa bu jarayonni avtomatlashtirish, inson omilidan bog'liqlikni kamaytirish va xatolik ehtimolini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan olib qaralganda, Leontyev, Kantorovich, Samuelson, Tinbergen kabi olimlarning iqtisodiy modellashtirishga qo'shgan hissasi matritsalar nazariyasining iqtisod sohasidagi muhim ahamiyatini yanada tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy meros zamonaviy kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashganda, yuqori darajadagi tahliliy vositalar yaratish imkonini beradi.

Takliflar

1. Ta'lim tizimiga oid takliflar:

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda, ayniqsa, iqtisodiy modellashtirish, operatsion tadqiqotlar, statistik tahlil kabi kurslarda matritsa amallari va ularning amaliy dasturlashdagi qo'llanilishi chuqur o'rgatilishi kerak.

Python, MATLAB, R va boshqa zamonaviy dasturlash muhitlarida matritsalar asosida iqtisodiy model tuzish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, loyihalar va laboratoriyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Matematika va informatika fanlari o'zaro integratsiyalashgan tarzda o'qitilib, iqtisodiy muammolarni algoritmik yondashuv bilan hal qilish kompetensiyalari shakllantirilishi lozim.

2. Amaliyotga oid takliflar:

Korxona va tashkilotlar darajasida rejalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarish, xarajatlar tahlili, daromad prognozi kabi jarayonlarda matritsali modellashtirishga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish zarur.

Python tilida ishlab chiqilgan soddalashtirilgan algoritmardan foydalanib, kichik va o'rta biznes vakillari uchun moliyaviy tahlilni tez va ishonchli bajaradigan vositalar ishlab chiqish mumkin.

Yirik iqtisodiy tahlil markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida statistik va matematik modellashtirish yo'nalishida matritsa amallaridan keng foydalanish hamda parallel hisoblash texnologiyalarini (GPU, klaster texnologiyalari) integratsiya qilish bo'yicha innovatsion loyihalar amalga oshirilishi kerak.

3. Ilmiy-tadqiqotga oid takliflar:

Iqtisodiy tizimlar barqarorligini baholashda eigen qiymatlar (**Eigen qiymatlar** (ya'ni o'z qiymatlar) – bu qiymatlar orqali tizim vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini bashorat qilish mumkin), teskari matritsa (**Teskari matritsa** – mavjud bo'lsa, bu iqtisodiy model yechimga ega ekanini ko'rsatadi), determinant kabi matritsa parametrlaridan foydalanish orqali yangi baholash metodikalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Matritsali yondashuv asosida regional iqtisodiy farqlar, sektorlararo aloqalar, ta'minot-zanjirlarining modellashtirilishini o'rganishga qaratilgan ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash lozim.

Mahalliy va xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida matritsali prognoz modellarini yaratish orqali iqtisodiy siyosatni shakllantirishda raqamli tahlillardan foydalanish targ'ib qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Leontief, W. *Input-Output Economics*. – New York: Oxford University Press. Second Edition, 1986.
2. Kantorovich, L.V. *Matematicheskie metody organizatsii i planirovaniya proizvodstva*. – Moskva: Nauka, 1939.
3. Samuelson, P.A. *Foundations of Economic Analysis*. – Harvard University Press. 1947.
4. Koopmans, T.C. *Activity Analysis of Production and Allocation*. – New York: Wiley. 1951.
5. Tinbergen, J. *The Design of Development*. – Baltimore: Johns Hopkins University Press. 1959.
6. Golub, G.H., Van Loan, C.F. *Matrix Computations*. – Baltimore: Johns Hopkins University Press. 1983.
7. Moler, C. *Numerical Computing with MATLAB*. – SIAM. 2004.
8. Strang, G. *Introduction to Linear Algebra*. – 5th ed. – Wellesley-Cambridge Press. 2016.
9. Oliphant, T. *Guide to NumPy*. – USA: Trelgol Publishing. 2007.
10. Zaitov A.A., Ya.Ishmetov A. Matematika 1 [Matn]. O'quv qo'llanma. / – T.: "Mahalla va oila", 2022 – 225 b.
11. Karimov S.X. *Matematik modellashtirish asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2019. – 180 b.
12. Olimov O. *Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 200 b.
13. Mirzayev Sh. *Statistik tahlil va matritsalar nazariyasi*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – 176 b.
14. Yoqubov A., G'ulomov S. *Chiziqli algebra va uning amaliy qo'llanmalari*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. – 160 b.
15. Egamberdiyev A.X. *Python dasturlash asoslari: matematik modellashtirish uchun amaliy qo'llanma*. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 190 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
